



UDK: 323/324

ORCID: 0009-0008-8741-9168

SAYLOV JARAYONI TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY-KONTSEPTUAL TALQINLARI

Kimsanboyev Raxmonjon Valizoda

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatias universiteti magistranti
Kimsanboyevrahmonjon99@gmail.com + 99895-727-70-21

Annotatsiya Mazkur maqolda O'zbekistonda Saylov jarayoni tushunchasi va uning nazariy-kontseptual talqinlari masalalari yoritilgan. Shunindek maqolada respublikada saylov jarayonlarini tshkil etish va fuqorolarning saylov madaniyatini shakllantirishning muhim omillari ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: saylov, elektoral taraqqiyot, mustaqillik, demokratiya, fuqarolar davlat, erkinlik.

THE CONCEPT OF THE ELECTORAL PROCESS AND ITS THEORETICAL AND CONCEPTUAL INTERPRETATIONS

Annotation This article covers the issues of the concept of the electoral process in Uzbekistan and its theoretical and conceptual interpretations. Also, the article analyzes on a scientific basis the important factors of the organization of electoral processes in the republic and the formation of the electoral culture of citizens.

Keywords: elections, electoral development, independence, democracy, citizen state, freedom.

ПОНЯТИЕ ИЗБИРАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И ЕГО ТЕОРЕТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ.

Абстрактный В данной статье описывается понятие избирательного процесса в Узбекистане и его теоретико-концептуальные интерпретации. В данной статье на научной основе анализируются важные факторы организации избирательных процессов в республике и формирования электоральной культуры граждан.

Ключевые слова: выборы, электоральное развитие, независимость, демократия, гражданское государство, свобода.

KIRISH. Dunyoda saylov qonunchiligini takomillashtirish global ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon xalqaro standartlar va tamoyillarni inobatga oladi. BMT va boshqa nufuzli tashkilotlarning 30 dan ortiq hujjatlarida bu masala demokratik taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakt, hamda Venetsiya komissiyasining Saylovlarga oid asosiy prinsiplari kabilar, mamlakatimizda saylov qonunchiligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, xalqaro hamjamiyat tomonidan saylov qonunchiligini zamonaviy norma va prinsiplarni inobatga olib isloh qilish zarurati ta’kidlanmoqda. Bu ishlar saylov erkinligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

So‘ngi yillarda respublikada saylov tizimini tubdan isloh qilish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy qoidalar qabul qilindi. Bu qoidalar milliy saylov qonunchiligida muhim o‘zgarishlarni amalga oshirishda xizmat qiladi. Saylovoldi tashviqotini olib borish uchun partiyalar faoliyatini moliyalashtirish tartibi belgilandi. Bu, saylov jarayonlarida ishtirok etayotgan partiyalarga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlar tizimli va izchil tarzda amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mamlakatning rivojlanishiga zamin yaratadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” (2017) va “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi” bo‘yicha Harakatlar strategiyasi 2018 yil- “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili”da, amalga oshirishga oid Davlat dasturiga, 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari kiritildi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (2017) va “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi (2018) farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining qarorlari va boshqa tegishli qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Saylovchilarning elektoral madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etishni bir necha guruhga bo‘lish mumkin. Avvalo, fuqarolarning saylov huquqi konstitutsiyaviy erkinligini ta’minlash; saylov tizimi, saylov jarayoni va uning ishtirokchilari, saylov qonunchiligini takomillashtirish, saylovlarga oid xalqaro-huquqiy mezonlarni saylov amaliyotimizga joriy etish va hokozo. Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq respublikamizning xuquqshunos olimlari tizimi, saylov saylov jarayoni, saylov qonunchiligining shakllanishi va rivojlanishiga jiddiy e’tibor qaratib, tadqiqotlar o‘tkazib

kelmoqdalar. Jumladan, D.Jo‘rayev [2], Nasriddinov F [3], Abduraxmonov X [4] va boshqalarining ilmiy ishlarida aniqlangan darajada ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi. Mustaqillik yillarida va keyingi davlarda O‘zbekistonda ichki ishlar profilaktikasi inspektorlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamlanib borishi mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar hamda arxiv materiallari nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma‘lumotlar tahlili mavzuga xolisona, tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Kishilik jamiyatining ko‘p ming yillik taraqqiyoti davomida shakllantirgan qimmatli ijtimoiy institutlardan biri saylovlardir. Saylovlar, fuqarolarni davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatini beruvchi muhim mexanizm bo‘lib, demokratik jarayonlarning asosi hisoblanadi. Ular fuqarolarning ovoz berish orqali o‘z fikrlarini ifoda etishlari, davlat bosqichlarida o‘z vakillarini tanlashlari uchun zarurdir.

Saylovlar, shuningdek, jamiyatda tushuncha va maslahat berish, turli ijtimoiy qatlamlar orasida o‘zaro muloqotni kuchaytiradi. Bu jarayon demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga, davlat tashkilotlari va rahbarlarining hisobotgarligini ta‘minlashga yordam beradi. Natijada, saylovlar nafaqat davlatni boshqarish, balki fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning muhim vositasidir.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov e‘tirof etganidek, “erkin saylov va o‘z hohish irodasini erkin bildirish prinsiplari birinchi navbatda, har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo‘yicha konsitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimizning modelining asosini tashkil etadi”. Saylovlar-amaldagi saylov huquqiy normalarning nechog‘lik demokratik ruxda ekanini namoyon etadigan halqaning o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etishining fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo‘lib o‘ta muhim ahamiyatda ega masladir [5.35-bet]

Demokratik islohotlar, Respublikada tizimli, bosqichma bosqich, o‘z navbatida fuqarolar manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Adolatli va demokratik saylovlar tizimli bo‘lishi hamda fuqarolarning ijtimoiy hayotda erkin ishtirok etishiga zamin yaratilishi Konstitutsiya va qonunlar asosida ifodalangan.

Davlat va jamiyat tuzilishining rivojlanishidagi bosqichlar fuqarolik jamiyat institutlarining jadal rivojlanishini oshiradi, davlat hukumati va boshqaruvi organlari ish faoliyatining ochiqqligi ta‘minlanadi, fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda yana faol ishtirok qilishlari yani organlarning ta‘sirli ishlashlarida jamoatchilik nazoratini ta‘minlashga yuridik qo‘llaniladi. Konstitutsiya asosida qurilgan talab va barcha erishib kelayotgan yutuqlarimizning garovi bo‘lib xizmat qiladi va “kuchli davlatdan kuchli harakat jamiyati sari” bo‘lishimiz bu erishilgan yutuqlarimizning haqiqiy namunalaridan biridir.

Darxaqiqat, saylovlari xalqaro normalar na milliy qonunchilik asosida hamda xolis, adolatli, eng muximi tashkiliy jixahatdan uyushqoqlik bilan o‘tkazishda Markaziy saylov komissiyasi va barcha darajadagi saylov komissiyalarining o‘rni beqiyosdir. Shu bois saylov komissiyalarining radik tabiatini o‘rganish nafaqat nazariy balki amaliy jixatdan xam muxim axamiyatga ega.

“Saylov komissiyasi” tushunchasining mazmun va mohiyatini tadqiq etishda, avvalo, “komissiya” so‘zining ma’nosini anglab olish muximdir. “Komissiya” so‘zi lotincha “comissio” so‘zidan olingan bo‘lib, bundada biror aniq vazifani bajarish yoki alohida chora-tadbirlarni o‘tkazish uchun tuzilgan organ nazarda tutiladi [6.108-bet] . Demak, komissiya deganda ma’lum bir belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun maxsus vakolatlarga ega tashkilot tushuniladi.

Rossiyalik olim M.S. Belyavskaya o‘zining ilmiy ishlarlarida turli sohalarda vakolatli emas, balki anik bir sohada faoliyat yuritish uchun tuzilishi kerak”, degan fikrni ilgari suradi” [7.56-c]. Saylovlarni tashkil etish, saylov jarayonlarining demokratik asoslarda adolatli, hqqoniy o‘tishi ko‘p jihatdan saylov organlari, ularning tuzilishi, tizimi va faoliyatiga bog‘liqdir. Xorijiy davlatlar saylov amaliyotida saylov organlari turlicha nom bilan atalib (komissiya, byuro, prezidium va x.k.), ular butun saylov jarayoniga tashkiliy jihatdan rahbarlikni amalga oshiradilar. Bular: xududiy saylov organlari (bunga Markaziy saylov organlari xam kirib, uning tizimi davlatning siyosiy-hududiy tuzilishi bilan belgilanadi); okrug saylov organlari bilan mos kelmagni hollarda saylov okruglari amal qiladi; uchastka saylov organlari saylov uchastkalarida ishlaydi.

Sh.Ruzinazarovning fikricha, saylov organi deganda, saylovini etish va o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organi tushuniladi. Bunda organ o‘z vakolati doirasida saylov qonunchiligini hayotga tatbiq ta’minlaydi. Bunday vakolatli organ saylov bo‘yicha ovozlarni xisoblab chiqadi va uning natijalarini rasman e’lon qiladi. Saylov organi faoliyatining o‘ziga xos xususiyati, birinchidan, boshka organlarda mustakil asosda faoliyatini tashkil etishga asoslanadi, ikkinchidan, mustakil saylov organi huquqiy makomi boshka organlardan tubdan farq qiladi. Saylov organi vakolatlari bevosita saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan uzviy bog‘liqdir [8.26].

Har qanday mamlakatda saylovlarning mustaqil, qonuniy, oshkora va adolatli o‘tkazilishida ularni o‘tkazuvchi subyektlarning tuzilishi va faoliyat yo‘nalishi muhim ahamiyat kasb etadi. Saylovlarning tashkillashtirilishi va O‘tkazilishida Markaziy saylov komissiyasi bilan bir qatorda okrug va uchastka saylov komissiyalarining faoliyati aloxida o‘ringa ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov Konstitutsiya va saylov to‘grisidagi qonunlarga asosan tashkil qilinuvchi komissiyalar saylov komissiyalari deb ataladi [9.32].

Saylov tizimi davlat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlovchi omil sifatida, siyosatshunoslikda muhim ahamiyatga ega. U, birinchidan, jamiyatning siyosiy tizimining

asosiy qismi bo‘lib, siyosiy jarayon sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir etadi va parlamentdagi o‘rinlarni taqsimlashda muhim rol o‘ynaydi. Saylov mexanizmi orqali fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, shuningdek, davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ortasidagi muvofiqlikni oshirish mumkin. Saylovlar me’yoriy baza orqali elektoratning huquqlari va majburiyatlarini kafolatlaydi. Saylov jarayonida barcha elementlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tahlil qilinishi zarur. Saylovlar, umuman olganda, jamiyatning vakillik organlari va davlat hokimiyatining shakllanishidagi muhim unsurdir.

Saylov tushunchasi mansabdor shaxsning yoki biror-bir organning ovoz berish yo‘li bilan tashkil etilishini anglatadi. Siyosatshunoslik fani nukta nazaridan saylovlarning aholining turli-tuman manfaatlarini anik ifodalash va ularni muvofiklashtirish, ya’ni agregasiyalash; hokimiyat institutlarni artikulyasiyalash va ustidan nazorat qilish, turli karashlarni yaxlitlash va umumsiyosiy irodani shakllantirish; siyosiy tizimni legitimlash va barqarorlashtirish; hokimiyat institutlari va fuqarolar o‘rtasidagi O‘zaro aloqalarni kengaytirish; tinch, institusionallashtirish yo‘llar orqali siyosiy mojarolarni hal qilishga yo‘naltirish; saylovchilarni dolzarb ijtimoiy vazifalarni xal qilishga safarbar etish; aholini siyosiy sosializasiyalash, uning siyosiy ongini va siyosiy madaniyatini yuksaltirish; siyosiy elitani tanlash (rekrutlash); muqobil siyosiy dasturlarning o‘zaro raqobati asosida jamiyatning yangilanishiga erishish kabi funksiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin [10.30]

Bu funksiyalar saylov jarayonining ahamiyatini oshiradi va jamiyatning yangilanishiga yordam beradi. Saylovlarning yuqoridagi funksiyalari ular demokratik tarzda tashkil qilingan taqdirdagina to‘la amalga oshadi. Saylov instituti fakat demokratik jamiyatda o‘zini to‘liq namoyon qilishi mumkin, zero, saylovlar demokratiyaning umumiy konsepsiyasi va qadriyatlarini bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning asosiy tamoyillaridan biri ham davriy va adolatli saylovlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi sobiq raisi M.Abduhalomov saylov tizimining ahamiyati borasida shunday degan edi: “Zamonaviy demokratiya talablari va barqaror taraqqiyotimizning shartlariga javob beradigan saylov jarayonlarida fuqarolar va siyosiy partiyalarning faol ishtirokini, saylov huquqlarining to‘liq ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydigan saylov tizimini yaratish mustaqillik yillarda amalga oshirilayotgan mamlakatimizni yangilash hamda modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri”ni tashkil etadi [11.1].

Xalqaro saylov standartlarini tashkil qiluvchi bir qator xalqaro hujjatlarda, xususan, Inson huquqlari umijahon deklarasiyasi (1948 y.da qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1991 y. 30 sentyabrda ratifikasiya qilingan); Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha Xalqaro pakt (1966 y.da qabul qilingan va 1976 y.da kuchga kirgan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1995 y. 31 avgustda ratifikasiya qilingan); Xotin- qizlar huquqlari bo‘yicha konvensiya (1952 y.da qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1997 y. 30 avgustda ratifikasiya qilingan); Erkin va adolatli saylovlarning mezonlari to‘g‘risidagi

deklaratsiya (Parlamentlararo ittifoq tomonidan 1994 yilda qabul qilingan); Demokratiya to‘g‘risida umumjahon deklaratsiya (parlamentlararo ittifoq tomonidan 1997 yilda qabul qilingan); YXHTning insoniylik mezonlari bo‘yicha konferensiyasi kopengagen kengashining hujjatida (1990 yilda qabul qilingan) quyidagilar saylovning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

1. Umumxalq ovoz berish tamoyili barcha fuqarolarning, ularning jinsi, irki, millati, sinfiy yoki kasbiy mansubligi, tili, daromadining miqdori, boyligi, ma‘lumoti, diniy yoki siyosiy e‘tiqodidan qat‘i nazar, saylovlarda saylovchi yoxud nomzod sifatida ishtirok etishlari mumkinligini bildiradi. Umumxalq saylovlar tamoyilidan ayrim holatlardagina chekinish mumkin. Masalan, balog‘at yoshiga to‘lmaganlar saylovlarda qatnashish hukukiga ega emaslar. Shuningdek, ruhiy nosog‘lom kishilar (agar sud tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa) va sud qaroriga ko‘ra jazoni o‘tash joylarida saqlanayotgan mahbuslarga ham saylash va saylanish xuquqi berilmagan.

G‘arb mamlakatlarining aksariyatida XX asrning o‘rtalariga qadar mulkiy senz va boshqa bir qator cheklovlar mavjud bo‘lib, ularga ko‘ra, muayyan miqdorda moddiy boyliklarga ega bo‘lmagan aholi qatlamlari, yollanma ishchilar saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lishmagan. Shuningdek, jins senzi, ya‘ni xotin-qizlarning saylovlarda qatnashishi bilan bog‘liq senz ham uzoq vaqtgacha saqlanib keldi. Fransiyada ushbu cheklovlar 1944 yilda, Italiya va Yaponiyada 1945 yilda, Gretsiyada 1956 yilda, Shveysariyada 1971 yilda, Portugaliyada 1974 yilda, Lixtenshteynda esa 1976 yilda bekor qilingan. Umumxalq saylovlar tamoyili demokratik mamlakatlarning aksariyatida Ikkinchi jahon urushidan keyin joriy qilingan.

2. Tenglik tamoyili har bir saylovchi, u kim bo‘lishidan qat‘i nazar bir ovozga ega ekanligini bildiradi. Uning ijtimoiy kelib chikishi, egallab turgan mavkei va lavozimi yoki boshqa shaxsiy fazilatlarining saylovchi maqomiga hech kanday ta‘sir ko‘rsatmasligi lozim.

3. Yashirin ovoz berish erkinligi tamoyili saylovchining muayyan karori boshka biror kishiga oshkor qilinmasligini bildiradi. Ushbu tamoyil tanlash erkinligini ta‘minlaydi, fuqarolarni ehtimoldan xoli bo‘lmagan ta‘kiblardan himoya qiladi, qing‘irliklarning oldini oladi.

4. To‘g‘ridan to‘g‘ri ovoz berish tamoyili saylovchi aniq bir nomzod uchun bevosita ovoz berishi lozimligini anglatadi. Saylovchilar va nomzodlar o‘rtasida biror-bir vositachi mavjud emas, balki ana shu nomzodlardan kaysi biri saylanadigan lavozimiga saylanishini saylovchilarning o‘zlari xal kiladi. Agarda fuqarolar oldin saylash guruhi yoki maxsus organ tashkil kilishsa va ular orqali nomzod saylansa, bunday saylovlar bilvosita saylovlar deb yuritiladi. Saylovlarning ushbu turi aksariyat hollarda fuqarolarda saylovlarga nisbatan qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin [12.31].

“Saylov turi” va “saylov tizimi” o‘rtasida farq qilish muhimdir. Saylov turi, saylov o‘tkaziladigan hudud, fuqaroning o‘z xohish-irodasini ifoda etish usuli, saylovning muntazamligi va boshqa omillar bilan bog‘liqdir. U, saylov natijalarining partiya yoki nomzod o‘rtasida taqsimlanishini aks ettirmaydi. Biroq, saylov tizimi esa saylov jarayonini, ovoz berish

mexanizmini va natijalarni taqsimlash usulini belgilaydi. Saylov tizimi, ko‘pincha, nisbiy yoki mutlaq ko‘pchilik asosida ishlaydi, bu esa partiya yoki nomzodlarning ovozlariidan qanday foydalanganini ko‘rsatadi. Shu sababli, saylov turini va tizimini aniq ajratish, saylov jarayonlarini to‘g‘ri tahlil qilish uchun zarurdir.

Saylov iborasi, davlat hokimiyati organlari yoki mansabdor shaxslarni shakllantirishda ikki yoki undan ortiq nomzodlar o‘rtasida ovoz berish jarayonini anglatadi. Bu jarayon saylovlarni boshqa tayinlash shakllaridan, masalan, farmon yoki buyrug‘ orqali tayinlashdan farqlaydi, chunki saylovlar orqali fuqarolar o‘z vakilliklarini ifoda etadilar.

Davlat boshqaruv tizimida, odatda, bitta nomzod taklif etiladi va tayinlash farmon yoki buyrug‘ asosida amalga oshiriladi. Saylovlar orqali davlat hokimiyatining idoraviy sub‘ektlarini shakllantirish, masalan, parlament a‘zolari yoki davlat rahbari, qonun bilan belgilangan tartibda o‘z moxiyatini namoyon qiladi. Ular hukumatni boshqarish vositalari sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Saylovchilarni o‘tkazilayotgan hudud ko‘lamiga ko‘ra umummilliy, mintaqaviy va mahalliy deb ajratish mumkin. Umummilliy saylovlar, butun mamlakatni qamrab oladigan saylov jarayonlaridir, masalan, prezident yoki parlament saylovlari. Mintaqaviy saylovlar esa muayyan bir hudud (viloyat yoki tuman) doirasida o‘tkaziladi, unda mahalliy vakillar saylanadi. Mahalliy saylovlar esa, shahar yoki qishloq darajasida amalga oshiriladi va bevosita fuqarolarning jamiyatdagi oddiy masalalarga ta‘sirini ta‘minlaydi. Fuqaroning o‘z hohish-irodasini ifoda etish usuli ham farqlanadi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlarda fuqarolar bevosita ovoz berish orqali xohishlarini bildirsa, bilvosta (egri va pog‘onali) saylovlarda ular oz vakillarini saylab, ular orqali o‘z fikrlarini ifoda etadi. Bu yondashuvlar har bir saylov jarayonida farqli natijalar va ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Saylov tizimi, shuningdek, saylov jarayonlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar to‘plamini anglatadi. Bu keng ma‘noda saylov o‘tkazish bilan bog‘liq barcha tamoyil va qoidalarni, fuqarolarning saylov huquqlarini hamda saylov jarayonining amalga oshirilishiga doir tartiblarni o‘z ichiga oladi.

Saylov tamoyillari demokratik jarayonlarning asosi bo‘lib, fuqarolarni erkin saylash imkoniyati bilan ta‘minlaydi. Fuqarolar o‘zlarini qiziqtirgan masalalarda ovoz berish orqali davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Saylovlarni adolatli, shaffof va qonuniy o‘tkazish uchun huquqiy me‘yorlar zarur. Umuman olganda, saylov tizimi va unga aloqador huquqiy normalar fuqarolarning saylov huquqlarini, erkinliklarini, shuningdek, demokratik jamiyat barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Saylov tizimining o‘ziga xosligi ko‘p jihatdan saylov okruglarining tashkil etilishiga bog‘liq. Har bir davlatda saylov okruglari turli mezonlarga asoslanib belgilanadi, bu esa saylov natijalariga ta‘sir ko‘rsatadi.

Okruglarning hududiy chegaralari, aholi soni, iqtisodiy va ijtimoiy holatlari saylov jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, teng aholi sonli okruglar yaratish, fuqarolarni adolatli ravishda vakillik qilish imkonini beradi. Aks holda, ba‘zi okruglarda ovozlar kuchli

bo‘lishi mumkin, bu esa saylov natijalarini buzg‘ich holga olib keladi. Shuningdek, okruglarning tashkil etilishi partiyalarning strategiyalariga ta’sir qilishi, ularning saylov kampaniyalarini qanchalik muvaffaqiyatli o‘tkazishiga ham yordam beradi. Aniqroq qilib aytganda, saylov okruglarining qanday tashkil etilishi saylov tizimining samaradorligini aniqlovchi muhim omildir.

Saylov tizimi, saylov huquqi va saylov jarayoni zamonaviy demokratiyaning asosiy institutlari hisoblanadi. Ular fuqarolarning siyosiy ishtirokini ta’minlaydi va davlat boshqaruvidagi vakillikni belgilaydi. Saylov huquqi fuqarolarning ovoz berish, o‘zlari uchun qiziqarli nomzodlarni tanlash imkonini beradi, bu esa demokratik jarayonlarni mustahkamlaydi.

Saylov jarayoni esa xalqning fikrini aks ettiradi va regional va milliy darajada siyosiy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar transparantlik va adolatni ta’minlash uchun zarurdir, chunki ularning samaradorligi demokratiyaning asosi sifatida ko‘riladi. Shu sababli, saylov tizimi va uning ta’siri zamonaviy siyosiy huquqiy voqelikda muhim fenomen sifatida baholanadi, chunki ular fuqarolar va davlat o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Xalq saylov orqali o‘z vakillarini tanlaydi va ularga suveren huquqlarni amalga oshirish uchun mandat beradi. Masalan, 1952 yilda Yevropa konvensiyasiga ilova qilingan birinchi bayonnomada tomonlar “okilona muddatlarda yashirin ovoz berish yo‘li bilan xalqning erkin fikr bildirish asosida qonun chiqaruvchi organga saylovlarni tashkil etish majburiyatini” o‘z zimmlariga olishlari belgilangan. Bu hujjat saylovlarning ahamiyatini va xalq obro’sini davlat boshqaruvida tan olishni ta’kidlaydi. Saylovlar xalqning fikrini bozorga chiqaradi va demokratik jarayonlarni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda saylov tizimi va saylov jarayoni so‘nggi yillarda muhim o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. 2021 yildan so‘ng, O‘zbekiston hukumatining saylov qonunchiligini modernizatsiya qilishga qaratilgan yondashuvlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar orasida saylov jarayonlarining ochiqligi, adolatli va demokratik o‘tkazilishi uchun yangi mexanizmlar joriy etish, hamda xalqaro standartlar va tajribalarni hisobga olish kiradi. Yangi saylov qonunlari saylovchilarning huquqlarini himoya qilish va saylovda ishtirok etishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu jarayonlarda yangi texnologiyalarni joriy etish ham amalga oshirilmoqda. Bu o‘z o‘rnida saylov jarayonlariga ishonchni oshirishga yordam berishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda saylovlar tadqiqotlari va monitoringini kuchaytirish uchun mahalliy va xalqaro tashkilotlar ishtirok etmoqda, bu esa saylov jarayonlarining shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda saylov tizimining rivojlanishi davom etmoqda va bu jarayonning yanada takomillashuvi uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjud [13].

Respublikada umumiy saylov prinsiplari saylash huquqi (aktiv saylov huquqi) umumiy harakterga egaligini, ya’ni bu huquqni ta’minlash qonundagi ba’zi istisnolarni inobatga olish lozim. Istisno quydagilarga taalluqli: a) saylov kunigacha 18 yoshga to‘lmagan shaxslar; b) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar; v) sud hukmi bilan ozodlikdan

mahrum etish jolarida saqlanayotgan shaxslar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati etib saylanish uchun 25 yoshga to‘lgan bo‘lishi va O‘zbekiston Respublikasida eng kamida 5 yil doimiy istiqomat qilayotgan bo‘lishi shart [14.44].

Saylovlarni tashkil etishi va o‘tkatish tartibi. Mamlakatimizda saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun doimiy asosda faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tuziladi. Mazkur Qonunining 1-moddasiga ko‘ra, Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, Oliy Majlisga saylovini shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi referedumini tashkil etish va O‘tkazish uchun tuziladi xamda o‘z faoliyatini mustakillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik, adolatlilik prinsiplari asosida doimiy ravishda amalga oshiradi.

O‘zbekiston saylov tizimining boshka mamlakatlar saylov tizimlaridan farq qiluvchi o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

1) Saylovchilarning ro‘yhatini tuzish amalyoti. Saylovchilarni ro‘yhati har bir saylov uchastkasi bo‘yicha saylov komissiyasi tomonidan komissiyasi uylarga borish (xonadonlarni birma-bir aylanib chiqish) orqali saylovchilar ro‘yhatiga aniqlik kiritadi, saylovchilarning Yagona elektron ro‘yhatini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Shakllantirishda saylovchilarning ro‘xati saylovga hammani tanishib chiqishlari uchun 15 kun oldin qog‘oz shakllida chop etilib, saylov uchastkadagi tegishli stendlarga qo‘yiladi va uni komissiya raisi bilan kotibi imzolaydi. Komissiya saylovchilar ro‘yxatini tuzib chiqishda jamoatchilik vakillarini ham jalb qilishi ko‘zda tutilgan;

2) Saylov komissiyalarining shakllantirilishi tartibi: Markaz komissiyasi doimiy ravishda ishlaydi, okrug, uchastka saylov komissiyasi vaqti o‘nglanadi va har bir saylovda yangilanadi;

3) Saylanadigan davlat vakillik organi lavozimlariga nom ko‘rsatishda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatiladigan nomzodlar umr miqdorining 30 foizini xotin-qizlar tashkil qilishi;

4) O‘zbekiston fuqarolarining elektoral madaniyati, ya‘ni saylov ishtirok etish darajasining yuqoriligi. Fuqarolarning saylovda ishtirok etish ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi MDH mamlakatlari birinchi, dunyoda esa eng oldingi o‘rinlarning birini egallaydi [15].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda saylov tizimi va uning huquqiy asoslari xalqaro standartlarga muvofiq, rivojlangan davlatlar tajribasi va milliy mentalitetimizni hisobga olgan holda shakllantirilgan. Bu tizim fuqarolarga davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o‘z vakillari orqali erkin va ixtiyoriy ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Saylovlar teng sharoitlarda o‘tkazilib, fuqarolarni demokratiya jarayonlariga jalb etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил январдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши”

бўйича Ҳаракатлар стратегияси 2018 йил- “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб қувватлаш йили” да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ 5308- сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий баъзаси. 23.012018. 06/18/5308/0610-сон; 25.052018 й. 06/18/5447/1269-сон.

2. Джўрайев Қ. Замонавий сайлов тизимларининг шаклланиши демократик тараққиёт омили сифатида. (Франция тажрибаси мисолида) Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент.2009. –Б. 9

3. Насриддинов Ф. Ўзбекистонда сайлов комиссиялари фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Юридика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий унвонини олиш учун ёзган диссертацияси.Тошкент- 2019

4. Абдурахмонов Х. Мамлакатда демократик ислохотларни чуқурлаштириш шароитида сайлов қонунчилигини такомиллаштириш. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. –Тошкент, 2018.

5. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси. –Т.: Ўзбекистон 2010. –Б. 35.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 8000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. ЎзРФА Тилва адабиёт инситути –Т.: Ўзбекистон миллий инциклопедияси. Давлат илмий нашпёти, 2006. –Б.108

7. Белавская М.С.конституционно-правовой статус избирательных комиссий, осуществляющих подготовку и проведение муниципальных выборов в Российской Федерации:...канд.юрид. наук. Ставропол. 2009, - С.56.

8. Рўзиназаров Ш. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг еркин демократик сайловларни ташкил етиш ва ўтказишда роли. / Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси. Т.: Ўзбекистон, 2014, –Б..26

9. Насриддинов Ф. Ўзбекистонда сайлов комиссиялари фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Юридика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий унвонини олиш учун ёзган диссертацияси.Тошкент- 2019. –Б.32

10. Джўрайев Қ. Замонавий сайлов тизимларининг шаклланиши демократик тараққиёт омили сифатида. (Франция тажрибаси мисолида) Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент.2019. –Б. 30.

11. Абдусаломов М.Э. Президент сайлови-фаровон келажагимизнинг муҳим омили/ “Демократлаштириш инсон ҳуқуқлари”, 2013.№ 1. –Б.1.

12. Джўрайев Қ. Замонавий сайлов тизимларининг шаклланиши демократик тараққиёт омили сифатида. (Франция тажрибаси мисолида) Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент.2019. –Б. 31 .

13. O‘zbekiston Respublikasining saylov to‘g‘risidagi qonunlari. –Т.: 2014, 43-44- betlar.

14. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Шавкат Мирзиёевнинг ўзбекистон Республикаси президенти лавозимида киришиши тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. “Халқ сўзи “2016 йил 15 декабрь